

LINGVISTIK GEOGRAFIYA ATAMASI VA UNGA BOG'LIQ TUSHINCHALAR

Dilrabo Ahmadaliyeva Tojimamatovna,

Ingliz tili amaliyoti kafedrası o'qituvchisi.

Andijon dvalat chet tillar institute

Email:dilrabo74@gmail.com

Abstarct: This article provides information about linguistic geography and concepts related to this term - linguistic mapping and linguistic atlas occupying an important place in the field of dialectology. Linguistic geography is linguistic phenomena that are distributed in a certain area, for example, it identifies sounds, grammatical forms, words, compares and explains regional language features in connection with the history of the people, the history of the language, and expresses the location and distribution limit of certain linguistic phenomena through atlases and maps. Both the map and the atlas are a means of expression of linguistic geography, the main purpose of which is to explain the laws and ways of language development, the reasons for the emergence and existence of a specific dialect, as well as the issues of the relations of dialect features to the literary language and to each other.

Key words: sounds, grammatical form, linguistic map, linguistic atlas, dialect, linguistic experience, linguistic dictionary, dialectal dictionary, lexical word, phonetic word, phonemic series, area linguistics.

Annotatsiya: Ushbu maqolada lingvistik geografiya va bu atamaga yaqin tushinchalar-lingvistik xaritalashtirish va lingvistik atlas dialektologiya sohasida muhim o'rin tutishi haqida ma'lumot berib o'tiladi. Lingvistik geografiya ma'lum hududda tarqalgan til xodisalaridir masalan, tovushlar, grammatik shakllar, so'zlarni aniqlaydi, hududiy til xususiyatlarini xalq tarixi, til tarixi bilan bog'liq holda qiyoslab, tushuntirib, ma'lum til xodisalarining o'rni va tarqalish chegarasini atlas va xaritalar orqali ifodalaydi. Xarita ham, atlas ham lingvistik geografiyaning ifoda vositasi bo'lib, uning asosiy maqsadi tilning taraqqiyot qonuniyatlari va yo'llarini, aniq bir lahjaning paydo bo'lishi va mavjudligining



sabablarini, shuningdek, sheva xususiyatlarining adabiy tilga va o'zaro bo'lgan munosabatlari masalalarini tushuntirib beradi.

Kalit so'zlar: tovushlar, grammatik shakl, lingvistik xarita, lingvistik atlas, lahja, lingvistik tajriba, sheva, lingvistik lug'at, dialectal lug'at, leksik so'z, fonetik so'z, fonema qatori, areal lingvistika.

Аннотация: В данной статье представлены сведения о лингвистической географии и связанных с этим термином понятиях - лингвистической картографии и лингвистическом атласе, занимающих важное место в области диалектологии. Лингвистическая география – это языковые явления, которые распространены на определенной территории, например, она выделяет звуки, грамматические формы, слова, сопоставляет и объясняет региональные языковые особенности в связи с историей народа, историей языка, выражает местонахождение и предел распространения некоторых языковых явлений через атласы и карты. И карта, и атлас являются средством выражения лингвистической географии, основной целью которой является объяснение закономерностей и путей развития языка, причин возникновения и существования того или иного диалекта, а также вопросов отношения диалектных признаков к литературному языку и друг к другу.

Ключевые слова: звуки, грамматическая форма, лингвистическая карта, лингвистический атлас, лингвистический словарь, диалект, языковой опыт, диалект, диалектный словарь, лексическое слово, фонетическое слово, фонемный ряд, ареальная лингвистика.

Lingvistik geografiya -tilshunoslikning har bir alohida til hodisalarining hududiy tarqalishini o'rganuvchi bo'lim xisoblandi. Bu sohaning o'rganish ob'ekti dialekt(lar) hisoblanadi. Lingvistik geografiya dialektografiya deb ham ataladi va bu dialektologiyaning bir bo'limi bo'lib lahja va shevalarga xos lisoniy unsurlar va hodisalarining hududiy tarqalishi o'rganiladi. Lingvistik geografiya ma'lum hududda tarqalgan til xodisalari (tovushlar, grammatik shakllar, so'zlarni aniqlaydi, hududiy til xususiyatlarini xalq tarixi, til tarixi bilan bog'liq holda qiyoslab, tushuntirib, ma'lum til xodisalarining o'rni va

tarqalish chegarasini atlas va xaritalar orqali ifodalaydi. Xarita ham, atlas ham lingvistik geografiyaning ifoda vositasi bo'lib, uning asosiy maqsadi tilning taraqqiyot qonuniyatlari va yo'llarini, aniq bir lahjaning paydo bo'lishi va mavjudligining sabablarini, shuningdek, sheva xususiyatlarining adabiy tilga va o'zaro bo'lgan munosabatlari masalalarini tushuntirib berishdir.

XIII-XV asrlar, uyg'onish davrida geografik kashfiyotlarning qilinishi, yangi yerlarning va ellarning topilishi bu o'lkalarning tili va madaniyati haqida materiallar ham yig'ilishiga, dunyo tillari geografiyasining kengayishiga olib keldi. Shu davrda ko'plab yangi tillar bilan tanishish, ularni bir-biriga taqqoslash, qiyoslash imkoniyati tug'ildi. Qiyoslash natijasida ular o'rtasidagi qator o'xshash jihatlar ma'lum bo'ldi. Tilshunos olimlar tillardagi o'xshash tomonlarning sababini aniqlashga bel bogladilar. Yevropa tillarini guruhlashtirishning ilk tajribasi fransuz tilshunosi J.Skaligerga (1540 – 1609 yy.) tegishli bo'lgan. U “Yevropaliklarning tillari haqida mulohaza” (1599) asarida Yevropada 4ta yirik va 7 ta kichik, jami 11 ta tillar guruhini belgilaydi.

Lingvistik geografiya ilk bor Yevropada rivojlangan deb tan olinsada sharqda Mahmud Koshg'ariy turkiy urug'-qabilalar ichida yurib, ularning til xususiyatlarini o'rganib va turkiy tillarni joylashishini maxsus xaritaga joylashtirgan. U dunyoni shar shaklida tasvirlaydi va uni to'rt —*ash-sharq, al-g'arb, ash-shimol, al-janub* tomonlariga bo'ladi. Mahmud Koshg'ariy turkiy qabilalar tilidagi farqli xususiyatlarini xaritada o'rni bilan belgilab borgan. Shuning uchun Mahmud Koshg'ariy lingvogeografiyaning asoschisi desak ham to'g'ri bo'ladi. O'zbekistonda lingvogeografik usulda shevalarni o'rganish 1940-yillarda boshlangan. O'zbek dialektologiyasining ravnaq topishi o'zbek tilini lingvistik xaritalashtirish imkoniyatini yaratdi. Shuningdek, lingvogeografik va areal tadqiqotlar olib borishga qulay imkoniyat berdi. Olimlardan A. Shermatovning lingvogeografiyaga, B. Jo'raevning areal lingvistikaga doir tadqiqotlarining dunyoga kelishi o'zbek tilshunosligining katta yutug'iga aylandi.

Lingvistik geografiyada izoglossalardan foydalaniladi (lot. *izo* - teng, *glossa* - til) bir dialekt, lahja doirasidagi yoki bir til, qarindosh tillardagi fonetik, leksik va grammatik



xususiyatlar mosligi darajasiga ko'ra tarqalishini ko'rsatadigan shartli belgi tushunchasidir. Masalan, izoglossalar fonemalar, ularning variatsiyalari, morfemalar, ularning variantlari, grammatik shaklli, leksemalar tushunchasiga asoslanadi. Masalan, birlamchi cho'ziq unlilar Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston va boshqa hududlarda tarqalishi maxsus belgilari xaritada aks ettiriladi. Lingvistik geografiya sohasidagi sezilarli yutuklarga qaramay, tadqiqotchi G. Iskandarovning fikriga ko'ra hal etilishi dolzarb bo'lib turgan masalalar ham mavjud. M., ba'zi lingvistik atlaslarda xaritaga olinayotgan ob'ektlarni aks ettirishda atomar yondashuv kuzatiladi.

Lingvistik geografiya usuli orqali tadqiq etish nafaqat o'zbek tili tarixi va shevashunoslik uchungina muhim ahamiyat kasb etib qolmasdan, o'zbek tili vujudga kelgan davrlardan buyon uning shevalari qator boshqa tillar, jumladan, birinchi navbatda qoraqalpoq, qozoq, uygur, qirgiz, turkman, tojik va boshqa tillar shevalari bilan yaqin aloqamunosabatda rivojlanishi, taraqqiy etishini kuzatish, shuningdek o'zbek xalqi tarixi, etnogenezi masalalarini hal etishda ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Lingvistik xaritalashtirish

Lingvistik xaritalashtirish til hodisalarining tarqalish hududini xaritada belgilash, tarqalishini xaritaga tushirish. Dialektologiya, shevalarni, monografiya, maqola va lug'atlar yaratish orqali o'rganilsa va xulosalar chiqarsa, lingvistik xaritalashtirish ularni tizimga tushirib, xaritalashtirish bilan shug'ullanadi. Lingvistik xaritalashtirish bu tadqiqot texnikasi hisoblanadi. O'zbekistonda lingvistik xaritalashtirish va dialektologik atlas yaratish ishi XX asrga kelib rivojlana boshladi. Sh.Shoabdurahmonov O'zbekistonda birinchi bo'lib shevalar atlasini yaratishning nazariy qoidalarini ishlab chiqdi. A. Jo'rayev areal lingvistikaning nazariy va amaliy asoslarini tadqiq qildi. Q. Muhammadjonov shimoliy o'zbek shevalarini, A. Shermatov Quyi Qashqadaryo shevalarini, Y. Ibrohimov va Z. Ibrohimovalar Orol bo'yi o'zbek shevalarini, N. Murodova Navoiy viloyati shevalarini xaritalashtirgan.

Lingvistik xaritalashtirish areal lingvistika va lingvistik geografiya bilan bo'g'liq. Areal Lingvistika sheva xususiyatlarining turli hududlarda tarqalishini maxsus belgilar va



raqamlar vositasida xaritada, aks ettirish bilan shug'ullanadigan dialektologiyaning bir bolimidir va u shevalarga yoki qarindosh tillarga xos bo'lgan xususiyatlarning tarqalish chegaralarini xaritada ifodalanishidir. Lingvistik geografiya . shevalarni o'rganishning bir metodi bo'lib hisoblanadi. Tishunoslik fanida Lingvistik xaritalashtirish , lingvistik geografiya va dialektologiyalarni farqlari mavjud. Lingvistik geografiyada sheva va lahjalar xos lisoniy usul va hodisalarning hududiy tarqalishini o'rganadi. Lingvistik xaritalashtirish antropologiya- xalqlarni va irqning tarqalish hududlari xaritalashtirish fani bilan ham uzviy bo'g'liq. Professor A. Nurmonov fikriga ko'ra o'zbek dialektologiyasining rivojlanishi O'zbek tilini lingvistik xaritalashtirish imkoniyatini yaratdi. Shuningdek, lingvogeografik va areal tadqiqotlar olib borishga qulay sharoit tug'dirdi. A. Shermatovning lingvogeografiyaga, B. Jo'raevning areal lingvistikaga doir tadqiqotlari o'zbek tilshunosligining katta yutug'idir. Lingvistik xaritalarda belgilangan lisoniy omillarning tarqalish hududini tadqiq etish tillarning o'zaro aloqasini ochib beradi, ularning taraqqiyot bosqichlarini nisbatan belgilaydi, til hodisalarining tarixini tiklaydi.

Lingvistik atlas

Lingvistik atlas dialektologik atlas- ma'lum hududda bir yoki bir necha o'zaro yaqin tillarga xos lingvistik xususiyatlarni va ularning hududiy tarqalish chegarasini aks ettiradigan, kitob shaklidagi, tartibga solingan xaritalar to'plami. Lingvistik atlas tuzish ishlarini amalga oshirish (bir xil) ona tilida so'zlashuvchilar tomonidan ishlatiladigan tovushlar, so'zlar yoki sintaktik til birliklari boshqa til sohalarining lingvistik xususiyatlarini ma'lum geografik hududida so'rovnomalar va suhbat yordamida aniqlanadi. Materialni to'plash va yozib olish usuli, xaritalashtirish tartibi atlas tuzuvchilarning maqsadi, ish hajmi, mavjud imkoniyatlariga qarab belgilanadi. Masalan, materiallar tilning barcha sathlarini yoki ulardan birini — leksika yoki fonetikasi — qamrab olishi mumkin. Lingvistik atlasda so'zlashuvchilar tomonidan ishlatiladigan til birliklarining lingvistik xususiyatlari ularning joylashuvi nuqtalar, doiralari va uchburchaklar kabi an'anaviy belgilar yordamida ko'rsatiladi. U yoki bu til hodisasini aniqlashga qaratilgan savollar miqdori 40—50 tadan bir necha mingtagacha bo'ladi. Lingvistik atlaslar tuzish har bir milliy til dialektologiyasining

rivojlanishidagi muhim bosqich bo'lib, u tilni lingvistik geografiya usuli bilan o'rganish uchun asos vazifasini bajaradi.

Lingvistik atlasni yaratish sohasi o'tgan asrlarda Evropada yaxshi rivojlangan. XIX asrda fransuz dialektologi Jyul Jil'eron butun Fransiyani velosipedda aylanib chiqib Fransuz tilining dialektal atlasini yaratgan. Lingvistik hodisalar ilk bor Yevropada rivojlangan deb ta'kidlansada, uning yaratish ildizlari Mahmud Qoshg'ariyga borib taqaladi. U turkiy tillarni joylashishini maxsus xaritaga joylashtiradi va turklar aslida 20 qabiladan tashkil topganligini aniqlaydi. Ularni har birini ko'p urug'lari borligini bayon qilib ularning sharqdan boshlab har birini joylashuvini birin ketin belgilab boradi. Har qaysi qabilalarning tilidagi farqli xususiyatlarini o'rni bilan ko'rsatib ketadi.

O'zbekistonda ham dialektologik atlas yaratish ishlari rivojlangan. Bu sohada Sh.Shoabdurahmonov, A.Jo'raev, Q.Muhammadjonov, A.Shermatov, Y.Ibrohimovlarning tadqiqotlari mavjud. Akademik Sh.Shoabdurahmonov O'zbekistonda birinchi bo'lib shevalar atlasini yaratishning nazariy qoidalarini ishlab chiqdi. Professorlar Q.Muhammadjonov shimoliy o'zbek shevalarini, A.Shermatov Quyi Qashqadaryo shevalarini, Y.Ibrohimov va Z.Ibrohimovalar Orol bo'yi o'zbek shevalarini, N.Murodova Navoiy viloyati shevalarini xaritalashtirgan.

S. Ashirboyev tadqiqotlarida o'zbeklar hozirgi O'zbekiston Respublikasi, Markaziy Osiyo mamlakatlarida, Afg'oniston, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Avstraliya, Xitoy Uyg'uristonida va boshqa mamlakatlarda istiqomat qilishlarini aytib o'tgan. Albatta, ularning tili o'zbek tili bo'lsa-da, o'ziga xos mahalliy xususiyatlariga ega. O'zbek shevalari o'zbek tilining mahalliy ko'rinishlari bo'lib, uni o'rganish fan uchun nazariy ahamiyat kasb etsa, bo'lajak til va adabiyot o'qituvchisi uchun amaliy ahamiyatga kasb etadi. O'zbek xalq shevalari L.a.ini yaratish murakkab ish bo'lib, ba'zi tadqiqotchilar fikriga ko'ra ular quyidagi xaritalarni o'z ichiga olishi lozim; 1) atlasning nazariy asosini ishlab chiqish (atlasning xususiyati, u tomondan hal qilinishi zarur bo'lgan murakkab muammoni belgilash, izogloss hodisalarini tanlash, transkripsiyani aniklash); 2) dastur-savolnomalar tuzish; 3) mini xaritasini tuzish; 4) marshrut jadvalini tuzish; 5) namunaviy xarita tuzish; 6)



mintaqaviy xarita yaratish; 8) atlas uchun material tanlash; 9) ishchi xarita tuzish; 10) izoglosslarni sharhlash; 11) ma'muriy-hududiy xarita tuzish va hokazo

1. Абдуазизов А., Шереметова А. Общее языкознание. – Т. 2004.
2. Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. – Т. 1979.
3. Абдуазизов А., Шереметова А. Общее языкознание. – Т. 2004.
4. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. –Toshkent: Navroz, 2013.
5. Баскаков Н. А. В Ведение в изучение тюркских языков. –М., 1968. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Тошкент: Ўзбекитсон, 2012.
6. Расулов Р. Умумий тилшунослик (Тилшунослик тарихи). I – қисм. -Т., 2005.
7. Усмонов С. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972.
8. Шерматов А. Лингвистик география нима? –Тошкент: Фан, 1981.
9. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т., 2002.